



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmoxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJIRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevena	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY MEXANIZMI.....	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI.....	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIVAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	303
Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIIYASI VA INTEGRATSIIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR.....	326
Egamberdiev Abbosxon Sherali o'g'li	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR

Egamberdiev Abbosxon Sherali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
Marketing va raqamli iqtisodiyot kafedrasini,
1-kurs mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni hududiy iqtisodiyotga joriy etish orqali investitsion muhitni yaxshilash masalalari Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli infratuzilmaning holati, elektron davlat xizmatlarining rivojlanish darajasi, raqamli platformalarning biznes muhitiga ta'siri hamda investorlar uchun yaratilayotgan qulayliklar o'rganiladi. Shuningdek, hududda mavjud muammolar — internet qamrovining notekisligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi aniqlanadi. Tahlil natijalari asosida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, investitsion axborot platformalarini yaratish, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu tavsiyalar hududiy investitsion muhitni barqaror yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, hududiy rivojlanish, investitsion muhit, Qashqadaryo viloyati, raqamli infratuzilma, elektron xizmatlar, investitsiyalar.

Abstract. This paper examines how digital technologies can improve the regional investment climate using the case of the Kashkadarya region. The study analyzes the current state of digital infrastructure, the development of e-government services, and the impact of digital platforms on the business environment. Key challenges are identified, including uneven internet coverage, low digital literacy, and a shortage of skilled IT professionals. Based on the findings, recommendations are proposed to expand digital infrastructure, create regional investment information platforms, strengthen public-private partnerships, and improve human capital development. The implementation of these measures is expected to enhance the investment attractiveness of the region and support its sustainable socio-economic growth.

Key words: digital technologies, regional development, investment climate, Kashkadarya region, digital infrastructure, e-government services, investments.

Аннотация. В статье анализируются возможности совершенствования инвестиционного климата на региональном уровне на основе внедрения цифровых технологий на примере Кашкадарьинской области. Рассматриваются состояние цифровой инфраструктуры, уровень развития электронных государственных услуг и влияние цифровых платформ на предпринимательскую среду. Выявляются основные проблемы, такие как неравномерное интернет-покрытие, недостаточный уровень цифровой грамотности и дефицит квалифицированных кадров. На основе проведенного анализа предложены рекомендации по развитию цифровой инфраструктуры, созданию инвестиционных информационных платформ, расширению государственно-частного партнёрства и совершенствованию системы подготовки кадров. Реализация данных мер позволит повысить инвестиционную привлекательность региона и обеспечить его устойчивое социально-экономическое развитие.

Ключевые слова: цифровые технологии, региональное развитие, инвестиционный климат, Кашкадарьинская область, цифровая инфраструктура, электронные услуги, инвестиции.



KIRISH

Raqamlashtirish jarayoni ishlab chiqarishdan tortib davlat boshqaruvi, moliya, savdo, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarigacha bo'lgan barcha tizimlarni tubdan o'zgartirmoqda. Natijada hududlarning raqobatbardoshligi endilikda nafaqat tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan, balki ularning raqamli infratuzilmasi va texnologik tayyorgarligi darajasi bilan belgilanmoqda. Ayniqsa, investitsiyalarni jalb etish masalasida raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, bank-moliya tizimi, soliq va bojxona xizmatlari, statistika hamda yer resurslari hisobini yuritishda raqamli platformalar joriy etilmoqda. Ushbu jarayonlar hududlarda investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [1].

Mazkur jarayonda Qashqadaryo viloyati alohida ahamiyatga ega. Viloyat tabiiy gaz, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlarda katta salohiyatga ega bo'lib, logistika nuqtayi nazaridan ham qulay hudud hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatning investitsion imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zamonaviy infratuzilma, ayniqsa raqamli infratuzilma yetarli darajada rivojlangan bo'lishi zarur. Chunki bugungi kunda investorlar nafaqat iqtisodiy foyda, balki shaffoflik, tezkorlik, axborot ochiqligi va xavfsizlik kabi omillarga ham katta e'tibor qaratmoqda.

Raqamli texnologiyalarni hududiy rivojlanishga joriy etish orqali investitsion muhitni yaxshilash bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, elektron davlat xizmatlari orqali biznesni ro'yxatdan o'tkazish, ruxsatnomalar olish, soliq va bojxona hisobotlarini topshirish jarayonlari soddalashadi. Ikkinchidan, raqamli investitsion platformalar orqali investorlar hududdagi loyihalar, bo'sh yer maydonlari, infratuzilma obyektlari va mavjud imtiyozlar haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uchinchidan, raqamli monitoring va tahlil tizimlari orqali investitsion loyihalarning amalga oshirilishi nazorat qilinadi hamda yuzaga kelayotgan muammolar tezkor aniqlanadi.

Biroq raqamli transformatsiya jarayoni muammolarsiz kechmaydi. Qashqadaryo viloyatida, ayniqsa chekka hududlarda internet qamrovining yetarli emasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, IT-mutaxassislar yetishmovchiligi hamda kiberxavfsizlik masalalarining dolzarbligi raqamli infratuzilmaning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, raqamli loyihalarni moliyalashtirish va ularni muvofiqlashtirish bo'yicha institutsional mexanizmlar ham to'liq shakllanmagan [4].

Shu sababli raqamli texnologiyalar orqali hududiy investitsion muhitni takomillashtirish masalasi faqat texnik muammo sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruvga oid kompleks masala sifatida qaralishi lozim. Bu jarayonda davlat, xususiy sektor, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi Qashqadaryo viloyati misolida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali investitsion muhitni yaxshilash imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish va investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy investitsion muhitni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo'nalishiga aylangan. O'zbekiston sharoitida mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, Prezident farmon va qarorlarida hududiy rivojlanish, raqamlashtirish va investitsiyalarni rag'batlantirish o'zaro bog'liq vazifa sifatida talqin qilinmoqda.

Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga oid farmonlarda raqamli infratuzilmani barcha hududlarda rivojlantirish, elektron davlat xizmatlari ulushini oshirish va raqamli iqtisodiyotning YalMdagi ulushini ko'paytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda raqamli texnologiyalar orqali boshqaruv samaradorligini oshirish va investorlar uchun qulay muhit yaratish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Bu esa hududiy investitsion muhitni yaxshilashda raqamlashtirish asosiy mexanizm ekanini ko'rsatadi.[3]

Prezidentning hududlarni kompleks rivojlantirishga oid qarorlarida esa har bir viloyatning o'ziga xos iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib investitsiya loyihalarini shakllantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xususiy sektorni faol jalb etish vazifalari belgilangan. Ushbu qarorlarda raqamli platformalar orqali investitsiya loyihalarini monitoring qilish, ochiq ma'lumotlar bazalarini yaratish va investorlar bilan muloqotni onlayn shaklga o'tkazish kabi vazifalar ilgari surilgan. Bu hujjatlar raqamli texnologiyalarni hududiy boshqaruv va investitsiya siyosatining ajralmas qismiga aylantirganini ko'rsatadi.[5]



World Bank tadqiqotlarida raqamli infratuzilma (keng polosali internet, mobil aloqa tarmoqlari, ma'lumotlar markazlari va h.k.) hududlarning investitsion jozibadorligiga ta'sir qiluvchi "asosiy imkon beruvchi omil" sifatida talqin qilinadi. Bankning raqamli kommunikatsiya infratuzilmasiga (Digital Communications Infrastructure – DCI) xususiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha tahlillarida davlatning vazifasi — bozorni to'g'ri tartibga solish, raqobatni rag'batlantirish, PPP mexanizmlarini ishlatish va risklarni boshqarish ekani alohida ko'rsatiladi. Bu yondashuv hududlarda raqamli tarmoq kengayishi va xizmat sifati oshishi orqali biznes xarajatlarini kamaytirishi, yangi bozorlarni ochishi va investorlar uchun "kirish to'siqlari"ni pasaytirishini asoslaydi¹.

Shuningdek, World Bank "Digital Public Infrastructure (DPI)" konsepsiyasini davlat xizmatlarini raqamlashtirishning tayanch arxitekturasini sifatida ilgari suradi. DPI (masalan, raqamli identifikatsiya, to'lov infratuzilmasi, ma'lumotlar almashinuvi) transaksion xarajatlarni qisqartirishi, "qog'ozbozlik"ni kamaytirishi va davlat–biznes munosabatlarida shaffoflikni kuchaytirishi orqali investitsion muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi.

OECD adabiyotlarida investitsion muhitni yaxshilashda institutsional sifat (regulyator tizim, ochiqlik, hisobdorlik, xizmatlar sifati) markaziy o'rin tutadi. OECD Digital Government yo'nalishida raqamli texnologiyalar davlatni "agile" (moslashuvchan), shaffof va inklyuziv qilishga xizmat qilishi, natijada biznes uchun ma'muriy yuk kamayishi va ishonch ortishi qayd etiladi².

OECDning Digital Government Policy Framework hujjatida raqamli transformatsiya "faqat IT loyihalar majmui emas", balki siyosat dizayni, idoralararo hamkorlik, ma'lumotlar boshqaruvi va xizmatlar foydalanuvchi tajribasiga (user-centricity) yo'naltirilgan uzluksiz islohot ekanligi ko'rsatiladi. Bu yondashuv hududlar darajasida ham raqamli xizmatlar sifatini oshirish orqali investorlar va tadbirkorlar uchun qulay muhit shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Maykl Porter hududiy raqobatbardoshlikni "alohida korxonalar" emas, balki lokatsion ustunliklar, institutlar, infratuzilma, ta'minotchilar, kadrlar va innovatsiya ekotizimi bilan izohlaydi. Porterning klasterlar haqidagi ishlanmalarida klasterlar hududda samaradorlikni oshirishi, innovatsiyani tezlatishi va yangi bizneslarning paydo bo'lishini rag'batlantirishi natijasida investitsiyalar uchun yanada jozibador muhit shakllanishi ta'kidlanadi³.

Porter yondashuvida raqamli infratuzilma bevosita "klaster raqobatbardoshligi"ning zamonaviy omiliga aylanadi: (1) tarmoq ichida kooperatsiya va logistika boshqaruvi, (2) bozorlarga kirish tezligi, (3) ma'lumotga asoslangan boshqaruv va marketing, (4) innovatsion startaplar rivoji kabi yo'nalishlar klaster samaradorligini oshiradi. Shu ma'noda, Qashqadaryo kabi resurs va sanoat salohiyati yuqori hududlarda raqamli infratuzilma klasterlashtirish siyosatini kuchaytiruvchi instrument sifatida ko'riladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi usullar ishlatildi:

Birinchidan, hujjatli tahlil usuli orqali Prezident farmonlari, qarorlari va davlat dasturlarining mazmuni o'rganildi hamda ularning hududiy investitsion muhitga ta'siri baholandi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida Qashqadaryo viloyatining raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari boshqa hududlar bilan solishtirildi.

Ushbu metodologiya mavzuni har tomonlama o'rganish, muammolarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, viloyatda raqamli infratuzilmaning hozirgi holatiga e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda mobil aloqa operatorlari tomonidan 4G va qisman 5G texnologiyalarini joriy etish, optik tolali internet tarmoqlarini kengaytirish hamda davlat idoralarida elektron hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Natijada viloyat markazi va yirik tumanlarda internet tezligi hamda sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa bank xizmatlari, elektron to'lovlar, onlayn savdo va masofaviy xizmatlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Biroq raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi hududlar kesimida notekis taqsimlangan. Xususan, chekka qishloq hududlarida internet sifati past bo'lib, bu yerda tadbirkorlar raqamli xizmatlardan to'liq foydalana olmayapti. Natijada investitsiyalar asosan shahar markazlari va sanoat zonalarida jamlanib, bu holat hududlararo iqtisodiy tafovutlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Investitsion muhitga ta'sir nuqtayi nazaridan raqamli texnologiyalar bir necha asosiy yo'nalishlarda ijobiy natijalar bermiqda. Birinchidan, elektron davlat xizmatlari orqali biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalar va ruxsatnomalar olish jarayonlari sezilarli darajada tezlashdi. Avval bir necha hafta talab etilgan ayrim jarayonlar

1 <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099135507312434566>

2 https://www.oecd.org/en/publications/oecd-digital-government-studies_24131962.html

3 https://biblioteca.fundacionibc.edu.ar/images/d/de/Clusters_1.pdf?utm



endilikda bir necha kun, ba'zan esa bir necha soat ichida amalga oshirilmoqda. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, tadbirkorlik faolligini oshirmoqda [7].

Ikkinchidan, raqamli to'lov tizimlari va elektron bank xizmatlari investorlarga moliyaviy operatsiyalarni tezkor va shaffof tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun muhim bo'lib, ularning moliyaviy intizomini mustahkamlash hamda kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.


Uchinchidan, investitsion axborotning ochiqligi ortib bormoqda. Hududdagi erkin yer maydonlari, infratuzilma obyektlari, mavjud investitsiya loyihalari va imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning raqamli platformalarda joylashtirilishi investorlar uchun hududni baholash jarayonini soddalashtirmoqda. Natijada investitsion qarorlar yanada tez va aniq qabul qilinmoqda [8].

Shu bilan birga, tahlil jarayonida bir qator muammolar ham aniqlandi. Ulardan biri — raqamli savodxonlik darajasining pastligi. Ko'plab kichik biznes vakillari raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas. Bu esa raqamli infratuzilma mavjud bo'lishiga qaramay, undan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda.

Yana bir muhim muammo — malakali IT-kadrlar tanqisligidir. Viloyatda mavjud oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari yetarli darajada IT-mutaxassislar tayyorlay olmayapti yoki bitiruvchilar yirik shaharlarga ketib qolmoqda. Natijada hududda raqamli loyihalarni ishlab chiqish va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Kiberxavfsizlik masalasi ham investitsion muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar investorlar ma'lumotlarining ishonchli himoyalanganligiga ishonch bildirmasa, ular raqamli platformalardan foydalanishni cheklashi yoki umuman investitsiya kiritmasligi mumkin. Shu sababli axborot xavfsizligini ta'minlash raqamli transformatsiyaning muhim sharti hisoblanadi [1].

Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni joriy etish investitsion muhitni yaxshilashda samarali vosita bo'lsa-da, uning ta'siri faqat texnik infratuzilma bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon inson kapitali, institutsional muhit va boshqaruv sifati bilan uzviy bog'liqdir.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma komponentlarining hududlar kesimidagi taqsimoti⁴

Qashqadaryo viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish investitsion muhitni takomillashtirish uchun katta salohiyatga ega. Biroq ushbu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun raqamli transformatsiya texnik, institutsional va ijtimoiy darajalarda bir vaqtda va o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi zarur. Faqat shundagina raqamli texnologiyalar hududiy rivojlanish va investitsion faollikning barqaror drayveriga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hududiy investitsion muhitni takomillashtirishda muhim strategik omil ekanini tadqiqot natijalari yaqqol ko'rsatdi. Raqamli infratuzilmaning rivoji hudud

4 Muallif ishlanmasi



iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, boshqaruv tizimini yanada samarali va shaffof tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois raqamlashtirish jarayoni faqat texnologik yangilanish sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional o'zgarishlarning uzviy majmuasi sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayoni bir qator cheklovlar bilan kechayotgani aniqlandi. Hududlar kesimida raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligi, ayniqsa qishloq joylarda internet tarmog'i sifati va tezligining pastligi investitsion faollikni cheklamoqda. Raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi hamda IT-kadrlar tanqisligi esa mavjud texnologik imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoyalash masalalariga yetarli e'tibor qaratilmasligi investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, quyidagi asosiy amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, viloyatda internet tarmoqlarini, ayniqsa chekka hududlarda, kengaytirish va ularning sifati oshirish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni faollashtirish zarur. Ikkinchidan, raqamli savodxonlik darajasini oshirish maqsadida tadbirkorlar va aholining turli qatlamlari uchun tizimli treninglar hamda o'quv dasturlarini keng joriy etish lozim. Uchinchidan, hududda IT-mutaxassislar tayyorlash va ularni ushlab qolish mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, rag'batlantiruvchi grantlar, imtiyozlar va qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. To'rtinchidan, kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlash va axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish investitsion ishonchni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali investitsion muhitni takomillashtirish uzoq muddatli barqaror rivojlanishning muhim omili sanaladi. Ushbu yo'nalishda izchil, kompleks va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritilgan taqdirda, viloyat nafaqat mamlakat miqyosida, balki mintaqaviy darajada ham investitsiyalar uchun jozibador hududga aylanishi mumkin. Bu esa yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini oshirish hamda hududning umumiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupov N.N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyotga ta'siri. — Toshkent: Aloqa, 2020. — 52–80-b.
2. Qodirov S.X. Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari. — Toshkent: Moliya, 2018. — 60–88-b.
3. Tursunov B.R. Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsiyalar. — Toshkent: Fan, 2022. — 90–120-b.
4. Mamatov D.J. Raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv tizimi. — Toshkent: Boshqaruv, 2021. — 35–63-b.
5. Ismoilova Z.Q. Elektron hukumat va davlat xizmatlari samaradorligi. — Toshkent: Huquq, 2020. — 25–55-b.
6. Tashpulatov A.R. Davlat-xususiy sheriklik va infratuzilma loyihalari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 61–95-b.
7. Omonov F.S. Raqamli savodxonlik va inson kapitali. — Toshkent: Ta'lim, 2021. — 44–70-b.
8. Jo'rayev I.M. Raqamli platformalar va biznes muhit. — Toshkent: Innovatsiya, 2022. — 55–82-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
